



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2023-yil
yanvar-dekabr*



QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING DOIMIY AHOLISI

2024-yil 1-yanvar holatiga, dastlabki ma’lumotlar

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yil 1-yanvar holatiga doimiy aholi soni **2 002,7** ming kishini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **26,5** ming kishiga yoki **1,3 %** ga ko‘paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **978,2** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **48,8 %**), qishloq aholisi soni **1 024,5** ming kishi (**51,2 %**) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

2 002,7 ming kishi

Tabiiy o‘shish

+33,9 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo‘yicha taqsimlanishi

Shahar

**48,8 %**


Qishloq

**51,2 %**Aholining tabiiy harakati
yanvar-dekabr

	kishi		o‘shish, kamayish (+,-)	har 1000 kishiga nisbatan promille	
	2022y.	2023y.		2022y.	2023y.
Tug‘ilganlar	42 835	44 021	1 186	21,8	22,1
O‘lganlar	9 585	10 099	514	4,9	5,1
Tabiiy o‘shish	33 250	33 922	672	16,9	17,0
Nikohlar	14 857	13 565	-1 292	7,6	6,8
Ajralishlar	2 067	1 933	-134	1,1	1,0

Qoraqalpoq‘iston Respublikasi bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar

2023-yil yanvar-dekabr




shundan: xorijdan ko‘chib kelganlar – 212 kishi

shundan: Ko‘chib ketganlar xorijga – 6 959 kishi

Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni


2024-yil 1-yanvar holatiga



2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, respublika doimiy aholisi sonining **30,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **58,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **10,6 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha aholi tarkibi


2023-yil 1-yanvar holatiga



2023-yil 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **101,4 ming kishini** tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib **31,9 ming kishini** tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 0-4 yoshli bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya‘ni **95,7 ming kishini** tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya‘ni **36,9 ming kishini** tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi

2023-yil 1-yanvar holatiga



2023-yilning 1-yanvar holatiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **72,9** yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun **70,6** yoshga, ayollar uchun esa **75,1** yoshga teng. Shahar joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi **70,5** yoshni, qishloq joylar uchun **75,4** yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024-yil 1-yanvar holatiga

Erkaklar

Ayollar



50,2 %

49,8 %



1 005,9 ming kishi

996,8 ming kishi

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy aholi soni

(1-yanvar holatiga, ming kishi)

	2023-yil	2024-yil	O‘sish sur‘ati, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1 976,2	2 002,7	101,3
Nukus sh.	334,6	339,2	101,4
tumanlar:			
Amudaryo	208,6	212,1	101,7
Beruniy	201,2	205,1	101,9
Bo‘zatov	21,9	21,9	100,0
Qorao‘zak	54,1	54,4	100,6
Kegeyli	74,2	74,8	100,8
Qo‘ng‘irot	134,6	136,0	101,0
Qonliko‘l	53,1	53,8	101,3
Mo‘ynoq	33,4	33,6	100,6
Nukus	52,9	53,9	101,9
Taxiatosh	76,3	76,8	100,7
Taxtako‘pir	39,0	38,9	99,7
To‘rtko‘l	224,7	228,8	101,8
Xo‘jayli	127,2	128,7	101,2
Chimboy	115,1	115,7	100,5
Shumanay	57,6	58,0	100,7
Ellikqal‘a	167,7	171,0	102,0

Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha aholi zichligi

1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to‘g‘ri keladigan aholi soni, kishi


	2023-yil	2024-yil
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11,9	12,0
Nukus sh.	1 514,3	1 541,8
tumanlar:		
Amudaryo	204,3	207,9
Beruniy	50,9	51,9
Bo‘zatov	10,7	10,7
Qorao‘zak	9,2	9,2
Kegeyli	80,7	81,3
Qo‘ng‘irot	1,8	1,8
Qonliko‘l	71,4	72,7
Mo‘ynoq	0,9	0,9
Nukus	56,0	57,3
Taxiatosh	429,6	426,7
Taxtako‘pir	1,8	1,8
To‘rtko‘l	30,0	30,6
Xo‘jayli	230,9	234,6
Chimboy	79,9	79,8
Shumanay	73,6	74,4
Ellikqal‘a	30,9	31,5

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2024-yil 1-yanvar holatiga 1 kvadrat kilometr ga o‘rtacha **12,0** kishi to‘g‘ri kelgan. Bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda **0,1** kishiga ortgan (2023-yil 1-yanvar holatiga 1 kv.km.ga **11,9** kishi).

Tumanlar bo‘yicha qaraydigan bo‘lsak, aholi zichliginig eng yuqori ko‘rsatkichi Nukus shahrida 1 541,8 kishi, Taxiatoşh tumanida 426,7 kishi, Xo‘jayli tumanida 234,6 kishi, Amudaryo tumanida 207,9 kishi, Kegeyli tumanida 81,3 kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Qorao‘zak tumanida 9,2 kishi, Qo‘ng‘irot tumanida 1,8 kishi, Taxtako‘pir tumanida 1,8 kishi, Mo‘ynoq tumanida 0,9 kishini tashkil etgan.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR

(yanvar-dekabr holatiga)



Shahar va tumanlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-dekabr, kishi

	Tug‘ilganlar soni	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	44021	22,1 %
Nukus sh. tumanlar:	6957	20,7 %
Amudaryo	5103	24,3 %
Beruniy	5211	25,7 %
Bo‘zatov	383	17,5%
Qorao‘zak	997	18,4 %
Kegeyli	1434	19,2 %
Qo‘ng‘irot	2872	21,2 %
Qonliko‘l	1155	21,6 %
Mo‘ynoq	613	18,3 %
Nukus	1379	25,8 %
Taxiatosh	1423	18,6 %
Taxtako‘pir	723	18,6 %
To‘rtko‘l	5203	22,9 %
Xo‘jayli	2796	21,9 %
Chimboy	2381	20,6%
Shumanay	999	17,3 %
Ellikqal‘a	4392	25,9 %

Tug‘ilganlarning taqsimlanishi

yanvar-mart

O‘g‘il bolalar

5 061



51,8 %

Qiz bolalar

4 716



48,2 %

yanvar-iyun

O‘g‘il bolalar

10 108



51,9 %

Qiz bolalar

9 358



48,1 %

yanvar-sentabr

O‘g‘il bolalar

16 682



51,7 %

Qiz bolalar

15 581



48,3 %

yanvar-dekabr

O‘g‘il bolalar

22 754



51,7 %

Qiz bolalar

21 267



48,3 %




2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **44,0** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **22,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **0,3** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **21,8** promilleni tashkil etgan).

Tug‘ilishlarning chaqaloqlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan tug‘ilishlarda 1 nafar va egizak tug‘ilgan chaqaloqlar soni bo‘yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo‘lganligi kuzatildi:



Chaqaloqlarning ota-onasi yoshi bo‘yicha taqsimlanishi

Otaning yoshi




Onaning yoshi



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida tug‘ilgan chaqaloqlar otasining yoshi bo‘yicha **11,9 %** chaqaloqlar otasining yoshi 25 yoshgacha, **80,0 %** ining otasi 25-39 yoshlarga hamda **8,1 %** chaqaloqlarning otasi 40 yosh va undan katta yoshdagilar hissasiga to‘g‘ri kelgan. Shuningdek, tug‘ilgan chaqaloqlar onasining yoshi bo‘yicha **30,6 %** chaqaloqlar onasining yoshi 25 yoshgacha, **67,4 %** ining onasi 25-39 yoshlarga hamda **2,0 %** chaqaloqlarning onasi 40 yosh va undan katta yoshdagilardan iborat bo‘lgan.

VAFOT ETGANLAR

(yanvar-dekabr holatiga)



Shahar va tumanlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-dekabr, kishi

	Vafot etganlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10 099	5,1 %
Nukus sh.	1662	4,9 %
tumanlar:		
Amudaryo	1056	5,0 %
Beruniy	903	4,4 %
Bo‘zatov	87	4,0 %
Qorao‘zak	395	7,3 %
Kegeyli	404	5,4 %
Qo‘ng‘irot	667	4,9 %
Qonliko‘l	246	4,6 %
Mo‘ynoq	192	5,7 %
Nukus	329	6,2 %
Taxiatosh	381	5,0 %
Taxtako‘pir	330	8,5 %
To‘rtko‘l	975	4,3 %
Xo‘jayli	557	4,4 %
Chimboy	834	7,2 %
Shumanay	312	5,4 %
Ellikqal‘a	769	4,5 %

Vafot etganlarning taqsimlanishi

yanvar-mart

Erkaklar

1 277

Ayollar

1 071



54,4 %

45,6 %

yanvar-iyun

Erkaklar

2 687

Ayollar

2 184



55,2 %

44,8 %

yanvar-sentabr

Erkaklar

4 344

Ayollar

3 493



55,4 %

44,6 %

yanvar-dekabr

Erkaklar

5 607

Ayollar

4 492



55,5 %


44,5 %



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **10,1** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **5,1** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **0,2** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **4,9** promille bo‘lgan).

O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr, kishi



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **61,2 %** i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **10,5 %** i – o‘simtalardan, **4,5 %** i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **6,1 %** i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **3,7 %** i – ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **0,8 %** i – yuqumli va parazitlar kasalliklardan, **13,2 %** i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.


O‘limning yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida vafot etganlar yosh guruhlari bo‘yicha taqsimlanganda 20 yoshgacha vafot etganlar **18,2 %** ni, 20-59 yoshlar orasida **34,5 %** ni, 60 va undan katta yoshlilarda esa **47,3 %** ni tashkil etgan.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR (yanvar-dekabr holatiga)



Shahar va tumanlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti

2023- yil yanvar-dekabr, birlik


	nikohlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	13 565	6,8 ‰
Nukus sh.	2 210	6,6 ‰
tumanlar:		
Amudaryo	1 671	7,9 ‰
Beruniy	1 545	7,6 ‰
Bo‘zatov	107	4,9 ‰
Qorao‘zak	316	5,8 ‰
Kegeyli	433	5,8 ‰
Qo‘ng‘irot	890	6,6 ‰
Qonliqo‘l	315	5,9 ‰
Mo‘ynoq	147	4,4 ‰
Nukus	364	6,8 ‰
Taxiatosh	460	6,0 ‰
Taxtako‘pir	241	6,2 ‰
To‘rtko‘l	1816	8,0 ‰
Xo‘jayli	815	6,4 ‰
Chimboy	611	5,3 ‰
Shumanay	294	5,1 ‰
Ellikqal‘a	1330	7,9 ‰

Nikohlarning taqsimlanishi

yanvar- mart



yanvar-iyun



yanvar-sentabr




yanvar-dekabr



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **13,6** mingta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **6,8** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **-0,8** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **7,6** promille bo‘lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR

(yanvar-dekabr holatiga)




Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2023-yil yanvar-dekabr, birlik


	nikohdan ajralishlar	koeffitsiyenti
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	1933	1,0 ‰
Nukus sh. tumanlar:	390	1,2 ‰
Amudaryo	141	0,7 ‰
Beruniy	202	1,0 ‰
Bo‘zatov	15	0,7 ‰
Qorao‘zak	54	1,0 ‰
Kegeyli	78	1,0 ‰
Qo‘ng‘irot	171	1,3 ‰
Qonliqo‘l	56	1,0 ‰
Mo‘ynoq	25	0,7 ‰
Nukus	52	1,0 ‰
Taxiatosh	74	1,0 ‰
Taxtako‘pir	41	1,1 ‰
To‘rtko‘l	171	0,8 ‰
Xo‘jayli	134	1,0 ‰
Chimboy	131	1,1 ‰
Shumanay	41	0,7 ‰
Ellikqal‘a	157	0,9 ‰

Nikohdan ajralishlarning taqsimlanishi

yanvar- mart



yanvar -iyun



yanvar -sentabr




yanvar -dekabr



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **1,9** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **-0,1** promillega kamayganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida jami nikohdan ajrashganlarning **29,6** % i farzandsiz, **39,2** % i bitta farzand bilan va **31,2** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Nikohdan ajrashganlar soni va koeffitsiyenti



Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha nikohdan ajrashganlarning 2023- yilning yanvar-dekabr oylarida **1 933** kishini, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan.

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar)

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlar jami soni 8 399 kishini tashkil etdi.


Doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlar soni jami 15 875 kishini, migratsiya saldosi minus 7 476 kishini tashkil etdi. (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida minus 5 516 kishini tashkil etgan).

Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni

(kishi)

	2022-yil yanvar-dekabr			2023-yil yanvar-dekabr		
	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi	Ko‘chib kelganlar	Ko‘chib ketganlar	Migratsiya saldosi
Nukus sh.	2723	2372	351	2852	3538	-686
tumanlar:						
Amudaryo	228	687	-459	306	829	-523
Beruniy	231	417	-186	294	650	-356
Bo‘zatov	80	292	-212	101	382	-281
Qorao‘zak	220	395	-175	200	522	-322
Kegeyli	286	638	-352	351	787	-436
Qo‘ng‘irot	423	748	-325	456	1280	-824
Qonliko‘l	273	466	-193	266	471	-205
Mo‘ynoq	201	264	-63	182	396	-214
Nukus	612	623	-11	723	804	-81
Taxiatosh	387	718	-331	346	857	-511
Taxtako‘pir	121	2186	-2065	190	705	-515
To‘rtko‘l	390	548	-158	424	622	-198
Xo‘jayli	596	989	-393	648	1484	-836
Chimboy	404	993	-589	430	1331	-901
Shumanay	282	421	-139	273	542	-269
Ellikqal‘a	297	513	-216	357	675	-318

JAMI KO‘CHIB KELGANLAR (yanvar-dekabr holatiga)




Shahar va tumanlar bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2023-yil yanvar-dekabr, kishi


	Ko'chib kelganlar	shundan:	
		Respublika boshqa hududlaridan	Xorijiy mamlakatlardan
Nukus sh. tumanlar:	2 852	2 831	21
Amudaryo	306	294	12
Beruniy	294	287	7
Bo'zatov	101	101	0
Qorao'zak	200	194	6
Kegeyli	351	344	7
Qo'ng'iro't	456	426	30
Qonliko'l	266	260	6
Mo'ynoq	182	179	3
Nukus	723	701	22
Taxiatosh	346	331	15
Taxtako'pir	190	166	24
To'rtko'l	424	400	24
Xo'jayli	648	631	17
Chimboy	430	427	3
Shumanay	273	258	15
Ellikqal'a	357	357	0

Ko'chib kelganlarning taqsimlanishi


yanvar-mart





yanvar -iyun



yanvar- sentabr




yanvar- dekabr



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **8,4** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **4,2** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mosdavriga nisbatan **0,2** promillega ko'payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **4,0** promille bo'lgan).

JAMI KO‘CHIB KETGANLAR

(yanvar-dekabr holatiga)




Shahar va tumanlar bo‘yicha ko‘chib ketganlar soni 2023-yil yanvar-dekabr, kishi


	Ko‘chib ketganlar	shundan:	
		Respublika ning boshqa hududlariga	Xorijiy mamlakatlarga
Nukus sh. tumanlar:	3 538	2 002	1 536
Amudaryo	829	634	195
Beruniy	650	332	318
Bo‘zatov	382	201	181
Qorao‘zak	522	333	189
Kegeyli	787	546	241
Qo‘ng‘irot	1 280	480	800
Qonliko‘l	471	386	85
Mo‘ynoq	396	179	217
Nukus	804	520	284
Taxiatosh	857	384	473
Taxtako‘pir	705	180	525
To‘rtko‘l	622	468	154
Xo‘jayli	1 484	622	862
Chimboy	1 331	747	584
Shumanay	542	415	127
Ellikqal‘a	675	487	188

Ko‘chib ketganlarning taqsimlanishi


yanvar-mart




yanvar-iyun



yanvar-sentabr



yanvar-dekabr



2023-yilning yanvar-dekabr oylarida **15,9** mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti **8,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022-yilning mos davriga nisbatan **1,2** promillega ko‘payganligi kuzatildi (2022-yilning yanvar-dekabr oylarida **6,8** promille bo‘lgan).

Xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash maqsadida ko‘chib kelganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi


2023-yil yanvar-dekabr



Qoraqalpog‘iston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko‘chib kelganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasidan **180** kishi, Rossiya Federatsiyasidan **12** kishi, Tojikiston Respublikasidan **1** kishi, Turkmaniston Respublikasidan **16** kishi va boshqa mamlakatlardan **3** kishi kelgan.

Xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash maqsadida ko‘chib ketganlarning davlatlar bo‘yicha taqsimlanishi

2023-yil yanvar-dekabr



Qoraqalpog‘iston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko‘chib ketganlarning asosiy qismi Qozog‘iston Respublikasiga **6 894** kishi, Rossiya Federatsiyasiga **40** kishi, Qirg‘iziston Respublikasiga **7** kishi, Turkmaniston Respublikasiga **7** kishi va boshqa mamlakatlarga **11** kishi ketgan.

Demografik ko‘rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro‘yxatdan o‘tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo‘lib, bunga ushbu hududda doimiy ro‘yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya‘ni me‘yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro‘yxatga olish ma‘lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug‘ilganlar va muayyan hududga ko‘chib kelganlar soni qo‘shilib, o‘lganlar va muayyan hududdan ko‘chib ketganlar soni ayriladi.

Tug‘ilish – tug‘ilish jarayonlarining sodir bo‘lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko‘rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug‘ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o‘lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

O‘lim sabablari – o‘limga yoki uning sodir bo‘lishiga ta‘sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o‘lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo‘lgan baxtsiz hodisa va zo‘ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o‘rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o‘zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o‘rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro‘yxatdan o‘tkazish natijasida o‘rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000 ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to‘liq yuridik to‘xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o‘rtacha soniga bo‘lib, 1000ga ko‘paytirish orqali hisoblanadi.

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya‘ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish

so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 61 222-76-57